

MALINA (RUBUS L.) NING YETISHTIRISHDA QO'LLANILADIGAN AGROTEXNIK TADBIRLAR

Islom Karimov nomidagi Toshkent
davlat texnika universiteti neft va gaz fakulteti
biotexnologiya yo'nalishi 1-bosqich magistranti
Ernazarova Sabina Anvarjon qizi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada malina (Rubus L.) o'simligini yetishtirishda qo'llaniladigan asosiy agrotexnik tadbirlar yoritilgan. Malina ekiladigan maydonni tanlash, tuproq-iqlim sharoitlariga qo'yiladigan talablar, ekish muddatlari va sxemalari, o'g'itlash, sug'orish, butash hamda qish mavsumiga tayyorlash texnologiyalari ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida malina yetishtirishning biologik va xo'jalik ahamiyati, hosilning pishish davrlari va yig'ib olish qoidalariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari malina yetishtirishda yuqori va sifatli hosil olish uchun agrotexnik tadbirlarni to'g'ri tashkil etish muhim ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: malina (Rubus L.), agrotexnika, tuproq unumdorligi, ekish muddati, sug'orish, o'g'itlash, butash, hosildorlik.

Malina yetishtirishda biz birinchi maydon tanlashimiz va tuproq tarkibini o'rganishimiz zarur, chunki malina bir yerda ko'chirilmasdan 10-12 yil ba'zan undan ham ko'proq yil o'sadi shuning uchun maydon tanlashga alohida e'tibor qaratish kerak, malina uchun sovuq shamollardan to'silgan, hosildor hamda suv qatlami yer yuzasidan 1,5 m dan past bo'lgan maydonlar ajratiladi [1].

Malina chirindiga boy tarkibi yaxshi hamda suvni yaxshi o'tkazuvchi qumloq va qumloq tuproqli yerlarda yaxshi o'sadi va mo'l hosil beradi. Og'ir tuproqli, sho'rxok, botqoq, karbonati ko'p yerlarda malina ekish yaramaydi. O'rtacha unumdor tuproqlarda remontant malinaning ko'p navlari uchun qatorlar orasidagi masofa – 1,5–2,0 m (ba'zan 2,5 m gacha), qatorlardagi o'simliklar orasidagi masofa 0,5–0,9 m qilishni tavsiya etilishi mumkin [2]. Malina ekiladigan yer 30-35 sm chuqurlikda chopilib, 1 m yerga 6-8 kg go'ng va fosforli o'g'it (15-20 g sof holda) yoki 1 ga maydonga 60-80 tonna go'ng, 150-200 kg fosforli (sof holda) aralashtirib solinadi [1]. Chopib chiqilganidan so'ng tuprog'i tekislanadi va jo'yak olinadi.

O'zbekiston sharoitida sug'oriladigan yerlarga malina kuz (oktyabr-noyabr)da yoki erta bahor (mart)da ekilgani ma'qul. Kuzda ekilgan nihollar yaxshi o'rnashib oladi va erta bahordayoq o'sa boshlaydi. Ekishdan oldin ildiz tizimi sinchiklab tekshiriladi, kasallangan, singan yoki zararlangan ildizlari kesib tashlanadi, judayam uzun ildizlari qisqartiriladi. Malina shunday o'tqazilishi kerakki, uning ildiz bo'g'zi yer sathiga to'g'ri kelsin, so'ngra chuqurchadagi ildizlar har tomonga baravar tarab o'rnashtiriladi, ustiga tuproq sepilib, nihol yengilgina silkitiladi va tuprog'i zichlanadi. Ko'chat o'tqazilgan zahoti har bir chuqurchaga 5-6 l suv quyiladi, chuqurchalar usti go'ng, torf yoki quruq tuproq bilan bektiladi, novdasining tuproq yuzasidan ustki qismi qirqilib, bir joyga to'planadi va yoqib yuboriladi [1].

Malina bahorgi va kuzgi ekish qoidalari faqat ekishdan oldingi tayyorgarlik jarayonidagina farq qiladi, boshqa hollarda ular bir xil ekiladi. Tuproqning yuqori qatlamini alohida olish kerak va unga 50 g kaliy sulfat, 100 g superfosfat, 10 kg chirindi yoki kompost, 400 g o'tin kullari aralashtirilib bir qismini chuqurga ko'chatni solib to'ldirish kerak. Ekishda bog'dagi qator orasi kamida 1,5 m va ko'chat orasi 0,5 m bo'lishi kerak [3].

Malina o'simligida ekish vaqtidan 1,5–2 oy oldin o'g'it qo'llash tavsiya etiladi. Keyinchalik, yozning boshida, qizg'in novdalar o'sishi boshlanganda, suyuq shaklda organik modalarni qo'shish kerak.

Malina o'sish davrida har bir kvadrat metr yerga 10-12 litr hisobida 12-15 martagacha sug'oriladi. Dastlab g'uncha tugayotganda, ikkinchi marta gullash oldidan, uchinchi marta meva tugish oldidan, to'rtinchidan sakkizinchigacha meva berayotganda, to'qqizinchidan-o'n beshinchigacha hosili yig'ib olingandan so'ng sug'oriladi. O'simlikni chidamli qilish uchun sug'orishni sentyabrgacha to'xtatiladi [4].

Malina yilda ikki marta butaladi. Hosili terib olingandan so'ng, meva tukkan barcha ikki yillik shoxchalari qirqib tashlanadi. Ularni poyasini qoldirmasdan tuproq sathigacha kesib tashlash kerak. Bir yilda ikki marta hosil beruvchi (remontant) navlarining hosil bergan barcha novdalarining yuqori qismi kesib tashlanadi. Malina parvarish qilishni yengillatish, tuplarga yorug'lik yaxshi tushishi, novdalarni sinib qolishdan asrash uchun maydonlarda simli tortmalar o'rnatiladi. Simga meva beruvchi shoxchalar bog'lanadi. Ularning uchlariga o'zaro parallel bo'lgan simlar mustahkamlanib, oralig'iga malina novdalari joylashtiriladi. Ularni bog'lash yoki bog'lanmagan holda ham qoldirish mumkin[4, 1].

Malina kech kuzgacha o'sadi, birinchi yili chiqargan shoxchalari gullaydi va sovuq tushgunga qadar meva beradi. Qorsiz qish sovug'ida shoxchalar muzlab qoladi. Shu boisdan ochiq yerlardagi malinalar qish oldidan ko'miladi, usti poxol, palaklar, qamish yoki tuproq bilan bekitiladi.

Malina ekilgach, ikkinchi yilidan hosil bera boshlaydi, uchinchi-to'rtinchi yillari to'liq hosilga kiradi. Uning mevasi nihoyatda nozik bo'lganidan bandi bilan uziladi. Muhimi, o'ta pishib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Terilgan kuni realizatsiya qilinishi lozim. Shuningdek, qayta ishlashga mo'ljallangan malina bandi bilan termasa ham bo'ladi. Uning mevasi Toshkent viloyati sharoitida iyunning birinchi o'n kunligida pisha boshlaydi, hosilni yig'ib olish iyulning

ikkinchi o'n kunligida tugaydi. Pishganining dastlabki kunlarida mevasi kunora, oxirida 3-4 kundan so'ng 1,5-2 kg meva sig'adigan idishga teriladi. Malina ertalab yoki kunning ikkinchi yarmida, harorat pasaygandan so'ng terib olish kerak [5,1].

Xulosa. Malina yetishtirishda agrotexnik tadbirlarning to'g'ri va o'z vaqtida bajarilishi o'simlikning normal o'sishi, rivojlanishi hamda yuqori hosildorlikni ta'minlaydi. Maydon tanlashda tuproq tarkibi va namlik sharoitlariga e'tibor berish, ekish sxemasiga rioya qilish, o'g'itlash va sug'orishni ilmiy asosda olib borish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, butash, simli tayanchlardan foydalanish va qish mavsumiga tayyorlash tadbirlari malina plantatsiyasining uzoq muddat samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi. O'zbekiston sharoitida mazkur agrotexnik tadbirlarni to'liq qo'llash orqali sifatli va mo'l hosil olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев Р.М. Резавор мевалар етиштириш. 66-китоб. 2021. – Б. 59.
2. Казаков И.В., Казаков И.В., Евдокименко С.Н. Малина ремонтантная / – М.: Научное издание, 2007. –286 с.
3. Зуфтаров Э.А. Малина (*rubus idaeus* L.) навларининг хўжаликбиологик хусусиятларини тадқиқ қилиш ва етиштириш технологиясини такомиллаштириш:.. Қишлоқ хўжалиги фанлари бўйича фалсафа доктори (Dostor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация: — Тошкент, 19.2023.- 120 б.
4. Кучкаров Н.Ю. Интродукция шароитида *Inula helenium* L. ва *Inula salicina* L. турларининг биоэкологияси // Биология фанлари фалсафа доктори (PhD) дис. – Тошкент, 2021; 28-30-б.
5. Абдуллаев Р.М., Абдуллаева Х.Р. “Резавор мевали ўсимликлар”. Қўлланма Тошкент.: “ЕФФЕСТ-НАШР”, 2020. – Б. 74-75.